



**XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMANI KENGASHINING
QARORI**

2024-yil 22-oktabr

VI-71-124-11-151-K/24

Oltiariq tumani

**2024-yil III chorak yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan
tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi "Tashabbusli budget jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 81-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. 2024-yil III chorak yakuni bo'yicha jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan Oltiariq tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari D.Nuriddinovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan quyidagilar:

Oltiariq tumani bo'yicha 2024-yil III chorak yakuni bo'yicha tashabbusli budgetlashtirish natijalari yuzasidan ma'lumotlar 1-ilovaga muvofiq;

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Oltiariq tumani Iqtisodiyot va moliya bo'limi (D.Nuriddinov), tuman hokimligi axborot xizmati (A.Xonkeldiyev) Tashabbusli budgetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budget" axborot portali hamda hokimlikning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

2024-10-24 09:17:28